



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehnonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Difuza Iloxomovna O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH.....	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI.....	169
Azizova Dilafruz Habibullayevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR.....	172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi	
O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	176
Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BYUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	188
Tolipova Malika Saloxidinovna	



AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	198
M.I. Murodova	
“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI	203
Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	211
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
IJTIMOIIY HIMOA TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	221
Aipova Iroda Ikramovna	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI	226
Musayeva Shoirazimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna	
РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА.....	239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович	
REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O'RNINI OSHIRISH.....	246
Sevara Hakimova Rustam qizi	



REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O'RNINI OSHIRISH

Sevara Hakimova Rustam qizi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti assistenti
E-mail: sevara-mm@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada real sektor korxonalarini moliyalashtirishda islom moliyasining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda islom moliyasining asosiy tamoyillari — foizsiz moliyalashtirish, aktivlarga asoslanganlik hamda risklarni adolatli taqsimlash — real iqtisodiyot rivojiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganilgan. Shuningdek, sukuk, mudaraba va musharaka kabi moliyaviy instrumentlarning real sektorni qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari ochib berilgan.

Kali so'zlar: islom moliyasi, real sektor, moliyalashtirish, sukuk, mudaraba, musharaka, investitsiya, moliyaviy risk, lizing, takaful.

Abstract. This article analyzes the role and significance of Islamic finance in financing enterprises within the real sector. The study examines the key principles of Islamic finance—interest-free financing, asset-backing, and equitable risk-sharing—from the perspective of their impact on real economic development. Furthermore, the paper explores the potential of financial instruments such as sukuk, mudaraba, and musharaka in supporting the real sector.

Key words: Islamic finance, real sector, financing, sukuk, mudaraba, musharaka, investment, financial risk, leasing, takaful.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение исламского финансирования в обеспечении финансирования предприятий реального сектора. В исследовании с точки зрения влияния на развитие реальной экономики рассматриваются основные принципы исламских финансов — беспроцентное финансирование, обеспечение активами и справедливое распределение рисков. Также раскрываются возможности таких финансовых инструментов, как сукук, мудараба и мушарака, в поддержке реального сектора.

Ключевые слова: исламские финансы, реальный сектор, финансирование, сукук, мудараба, мушарака, инвестиции, финансовые риски, лизинг, такафул.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va real sektorni barqaror moliyalashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, global moliyaviy inqirozlar va yuqori riskli foizga asoslangan moliya tizimining ayrim zaif jihatlari tobora yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, muqobil moliyaviy mexanizm sifatida islom moliyasi tizimi xalqaro miqyosda keng e'tibor qozonmoqda. Islom moliyasi aktivlar bilan ta'minlanganlik, risklarni adolatli taqsimlash va spekulativ operatsiyalarning cheklanishi kabi tamoyillarga asoslangan bo'lib, real iqtisodiyot bilan bevosita bog'liqligi bilan ajralib turadi. Natijada, ushbu tizim real sektor korxonalarini moliyalashtirishda barqaror va ishonchli manba sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda islom moliyasi bozori jadal sur'atlar bilan rivojlanib, uning umumiy hajmi trillionlab AQSh dollariga yetgani kuzatilmoqda. Bu esa, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda investitsion resurslarga bo'lgan talabni qondirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi instrumentlari (sukuk, mudaraba, musharaka va boshqalar) real sektorni moliyalashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham real sektor korxonalarini moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish, investitsiya manbalarini kengaytirish hamda moliyaviy inklyuziyani oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda islom moliyasini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.



Shuningdek, mamlakatimizda islom moliyasi infratuzilmasini shakllantirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda islom moliyasining o'rnini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda real sektor korxonalarini samarali moliyalashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy moliyaviy tizimda foiz stavkalariga asoslangan mexanizmlar ustuvor bo'lsa, islom moliyasi tizimi real iqtisodiy faoliyat bilan uzviy bog'liqligi, risklarni adolatli taqsimlashi va ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, ko'plab xalqaro olimlar islom moliyasining real sektorni rivojlantirishdagi o'rnini alohida ta'kidlab o'tganlar.

Jumladan, Muhammad Umer Chapra [1] o'z ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy tizimning asosiy vazifasi real iqtisodiyotga xizmat qilishdan iborat ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, islom moliyasi instrumentlari real aktivlar bilan bog'langan bo'lib, bu esa moliyaviy resurslarning spekulativ operatsiyalarga emas, balki ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Natijada iqtisodiy o'sishning barqarorligi va sifat ko'rsatkichlari oshadi.

Shuningdek, Monzer Kahf [2] islom moliyasining risk-sharing (riskni taqsimlash) tamoyiliga alohida urg'u beradi. Unga ko'ra, musharaka va mudaraba kabi moliyaviy instrumentlar investor va tadbirkor o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi hamda kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa real sektorning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Abbas Mirakhor [3] esa islom moliyasini iqtisodiy adolat va samaradorlikni ta'minlovchi tizim sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, islom moliyasi kapitalni real iqtisodiy faoliyatga yo'naltirish orqali moliyaviy resurslarning optimal taqsimlanishini ta'minlaydi va iqtisodiyotda nomutanosibliklarning oldini oladi. Bu esa real sektor korxonalarining barqaror faoliyat yuritishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Zeti Akhtar Aziz [4] islom moliyasining amaliy jihatlariga e'tibor qaratib, ayniqsa sukuk instrumentining infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishdagi rolini yuqori baholaydi. Uning fikricha, sukuk orqali jalb etilgan mablag'lar real sektorning yirik loyihalarini moliyalashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, Habib Ahmed [5] islom moliyasining ijtimoiy yo'naltirilgan jihatlariga e'tibor qaratadi. U zakat, waqf va islomiy mikrofinans instrumentlari orqali kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish va real sektorni kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini asoslab beradi.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda ham islom moliyasi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini kuzatish mumkin. O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham islom moliyasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Xususan, Sh. Safarov tijorat banklarida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish masalalarini tahlil qilib, ularning real sektorni moliyalashtirishdagi imkoniyatlarini asoslab bergan. N. Obidov esa islom moliyasini joriy etishning huquqiy va institutsional asoslarini o'rganib, mamlakatda ushbu tizimni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ko'rsatib o'tgan.

K. Aripova va H. Raxmatovlarning tadqiqotlarida islom moliyasining real iqtisodiyotga ijobiy ta'siri, xususan, investitsiya faolligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Bundan tashqari, F. Xudoynazarov va Z. Abdullajonova o'z ishlarida islom moliyasining amaliy masalalari, rivojlanish istiqbollari hamda moliyaviy instrumentlarning qo'llanilish mexanizmlarini yoritib berganlar.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islom moliyasining real sektorni moliyalashtirishdagi aniq mexanizmlari, ayniqsa sukuk va sheriklik asosidagi moliyalashtirish instrumentlarini keng joriy etish masalalari hali yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, islom moliyasi real sektor korxonalarini moliyalashtirishda muhim institutsional va iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. U real aktivlarga asoslanganligi, risklarni taqsimlash tamoyiliga amal qilishi hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilganligi bilan an'anaviy moliyaviy tizimdan farq qiladi. Natijada, islom moliyasining keng joriy etilishi real sektor rivojlanishini jadallashtirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va inklyuziv o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda islom moliyasi va an'anaviy moliya tizimiga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi. Jumladan, Islamic Development Bank hamda Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions tomonidan e'lon qilingan me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi.



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining moliyaviy bozorlar va bank tizimiga oid qonunchilik hujjatlari hamda amaldagi me'yoriy-huquqiy bazasi ko'rib chiqildi. Islom moliyasi instrumentlari — murobaha, musharaka, mudaraba, ijara va sukuk bo'yicha mavjud ma'lumotlar asosida qiyosiy va statistik tahlil amalga oshirildi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, taqqoslash, umumlashtirish va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilib, islom moliyasining real sektor korxonalarini moliyalashtirishdagi o'rni va imkoniyatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global islom moliya tizimida islom bank sektori aktivlar bo'yicha taxminan 70–75% ulushni tashkil etadi. Ya'ni, islom moliyasining umumiy aktivlari tarkibida eng katta segment aynan islom banklaridir. Qolgan qismi esa sukuk (islomiy obligatsiyalar) bozori, islomiy investitsiya fondlari, takaful (islomiy sug'urta) sektori va boshqa moliyaviy institutlardan iborat. Shu sababli, islom bankchiligi islom moliya tizimining asosiy va dominant tarmog'i hisoblanadi.

Islomiy banklar ham shaxs, ham jamiyat uchun manfaatli bo'lib, shariat bo'yicha taqiqlangan hamda zararli bo'lgan faoliyatlarni moliyalashtirmaydi. Shuningdek, bugungi kunda dunyo aholisining salmoqli qismini tashkil etgan musulmonlar ulushi demografik prognozlariga ko'ra, 2050-yilga borib qariyb 30 foizga yetishi taxmin qilinishi, islomiy banklar va ularning moliyaviy instrumentlariga bo'lgan talablarning ortib borishini ko'rsatadi.

An'anaviy iqtisodiy model hukmron bo'lgan mamlakatlarda islom bankchiligini muqobil moliyaviy tizim sifatida joriy etish biznes subyektlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Islomiy bank mahsulotlaridan foydalanish nafaqat moliya manbalarini diversifikatsiya qiladi, balki iqtisodiy faollik va real sektorni moliyalashtirishda qo'shimcha o'sish sur'atlarini rag'batlantiradi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda qo'shimcha moliyalashtirish instrumentlarining paydo bo'lishi tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarni tanlash imkoniyatini kengaytiradi, natijada kapitalga kirish osonlashadi va biznesni rivojlantirish uchun qulay muhit shakllanadi.

Islomiy bank tizimini joriy etishning ikkita yondashuvi (modeli) mavjud. Birinchisi, mamlakatda faqat islomiy bank tizimi faoliyat ko'rsatadi va u tomonidan moliyalashtiriladi. Ikkinchisi esa ikki tomonlama bank tizimi amal qiladi va islom bank tizimi an'anaviy tizim bilan parallel ravishda ishlaydi. Ko'pchilik mamlakatlar dunyoda islom bank tizimini joriy etishda o'z yondashuvi sifatida ikkinchi toifani tanlaydi.

Hozirgi kunda dunyoning 80 dan ortiq davlatida qariyb 2 mingta islom moliya institutlari faoliyat yuritmoqda va ular orasida islom banklari asosiy, yetakchi segment hisoblanadi. Bugungi amaliyotda islom banklari turli xil moliyaviy xizmatlarni taqdim etib kelmoqda (1-jadval).

1-jadval. Islom banklari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar¹

Iste'mol banki	Biznes banking	Korporativ banking	G'aznachilik	Boshqalar
shaxsiy moliyalashtirish; avtomobilni moliyalashtirish; uy va asosiy vositalarni moliyalashtirish; omonat hisoblari; joriy hisoblar; muddatli deposit; kredit kartasi; debet karta; investitsion hisob.	joriy hisoblar; muddatli depozit; naqd pul liniyasi lizing va ijaraga sotib olish; savdoni moliyalashtirish va xizmatlar; moliyani birlashtirish; aksiyalarni moliyalashtirish.	korporativ bank ishi; korporativ moliya va maslahat; qarz va islom kapitali bozorlari; sindikatsiya.	korporativ depozit joylashtirishlar; xorijiy valyuta; strukturaviy mahsulotlar.	naqd pulni boshqarish; boylikni boshqarish.

Islom moliyasida shartnomalar moliyalashtirish maqsadiga ko'ra uch asosiy guruhga ajratiladi:

1. foyda va zararni taqsimlashga asoslangan bitimlar;
2. savdo (tijorat) operatsiyalariga asoslangan bitimlar;

¹ "Islamic Finance Architecture" Islamic Banking & Finance Institute Malaysia, First Edition 2016




3. haq va to'lov (ijara, xizmat haqi) asosidagi moliyaviy mahsulotlar.

Foyda va zararni taqsimlash mexanizmi daromadlarning adolatli taqsimlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishda islom banklari asosan mushoraka va mudoraba shartnomalaridan foydalanadi. Mushoraka shartnomasida bank loyiha yoki korxona faoliyatida hamkor sifatida qatnashadi hamda mijoz bilan tuzilgan kelishuvga muvofiq belgilangan nisbatda foydadan ulush oladi.

Mudoraba modelida esa bir tomon (rab-ul-mol) biznesni boshlash yoki rivojlantirish uchun zarur kapitalni taqdim etadi, ikkinchi tomon (mudorib) esa ushbu mablag'larni boshqarib, daromad keltiruvchi faoliyatni amalga oshiradi. Ushbu hamkorlik shaklida axborotlarning ochiqligi va shaffofligi muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni barcha ishtirokchilar moliyaviy ma'lumotlardan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda islom banki aktivlari bo'yicha yetakchi davlatlarni quyidagi 1-rasmda ko'rishingiz mumkin.



1-rasm. Islom banklari aktivlari bo'yicha yetakchi davlatlar²

Ushbu rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, eng yuqori aktivga ega bo'lgan davlatlardan biri Eron davlati bo'lib, aktivlari hajmi 2012 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Bu mamlakat bank tizimi to'liq islomiy moliya tizimiga o'tgan. Keyingi o'rinda Saudiya Arabistoni hisoblanadi, aktivlari hajmi 913 mlrd dollarni tashkil qilgan bo'lib, real sektorni moliyalashtirishda murabaha, musharaka va ijara instrumentlari keng qo'llanadi.

Osiyodagi islom moliyasi markazlari Malayziya va BAA hisoblanadi. Malayziya davlatining aktivlari 312 mlrd dollarni, BAA esa 306 mlrd AQSh dollarini tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu davlatlar islom kapital bozorida yetakchi davlatlar hisoblanadi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda O'zbekistonda ham islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish va ommalashtirish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda. Amaldagi qonunchilik doirasida O'zbekistonning 12 ta banki Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islom korporatsiyasining kredit liniyalari hisobidan murobaha xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, 2 ta bankda islomiy lizing va murobaha asosidagi nasiyaga savdo operatsiyalari xizmatlari joriy etilgan.

Bundan tashqari, mikromoliya tashkilotlariga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatishga ruxsat berildi va bu kichik biznesni moliyalashtirishda muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan holda faoliyat ko'rsatayotgan "IMAN" investitsiya fondi hisobotiga ko'ra, 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, nasiya savdo va moliyalashtirish hajmi qariyb 438 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu kompaniya islomiy tamoyillar asosida aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish orqali asosan savdoni moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. 2025-yilda kompaniya mijozlari soni 64 mingdan oshgan bo'lsa, hamkor do'konlari soni qariyb 300 tani, oylik sarmoya rentabelligi (reinvestitsiya hisobiga) esa 18,25 foizni tashkil etgan.

Mazkur yo'nalishlarda erishilgan natijalar mamlakatda islomiy moliyalashtirishni joriy qilishni jadallashtirish, uning ommabopligini oshirish hamda istiqbolda rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida ko'rishni taqozo etadi.

2 ICD-LSEG Islamic finance development reports 2025



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishni joriy etish va ommalashtirish, birinchi navbatda, alternativ bankchilik xizmatlarini vujudga keltirib, mamlakat bank tizimini kengaytirish bilan bir qatorda unda raqobat muhitini shakllantiradi. O'z navbatida, bu biznesni moliyalashtirish uchun qulay muhit hamda qo'shimcha resurs manbai va bank mahsulotlari tanlovini hosil qiladi. Shuningdek, islomiy moliyalashtirishni joriy etish kichik biznesni qo'llab-quvvatlash hamda kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, islomiy bank tizimini keng joriy etish va uning moliyaviy instrumentlaridan biznesni moliyalashtirishda foydalanishni ommalashtirish borasida quyidagi yo'nalishlar keltirib o'tiladi.

Birinchi, kuchli huquqiy va me'yoriy bazani shakllantirish tizim uchun qulay huquqiy muhitni yaratib, islom bank ishini tartibga solish imkonini beradi hamda mamlakatda islomiy bank xizmatlarini biznesga yo'naltirish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchi, banklar tomonidan biznesni moliyalashtirish uchun islomiy moliya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bank mahsulotlarini taklif etish va tadbirkorlarga targ'ibot ishlarini olib borish zarur. Xususan, bugungi kunda bir qator banklar tomonidan tadbirkorlarga asosiy vosita, uskuna va texnika olish uchun murobaha mahsuloti taklif qilinmoqda.

Shu bilan birga, yangi tizimni qo'llab-quvvatlash maqsadida islomiy moliyalashtirish bilan bog'liq qulaylik va imtiyozlarni ishlab chiqish ham tizimni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, islomiy moliya sanoati rivojlangan boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish ham tizimni joriy qilishni tezlashtirishga katta turtki beradi. Bu hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki huquqiy va metodologik asosni yaratishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chapra, M.U. (2008). The Islamic Vision of Development in the Light of Maqasid al-Shariah.
2. Kahf, M. (2007). "Islamic Banks: The Rise of a New Power Alliance of Wealth and Shari'a Scholarship." In: The Politics of Islamic Finance. Edinburgh University Press.
3. Aziz, Z.A. (2013). "Islamic Finance: Advancing Real Economic Activity." Bank Negara Malaysia Speech.
4. Ahmed, H. (2011). Product Development in Islamic Banks. Edinburgh University Press.
5. Ahmed, H. (2002). "Financing Microenterprises: An Analytical Study of Islamic Microfinance Institutions." Islamic Economic Studies.
6. Islamic Development Bank. (2022). Annual Report. Jeddah: IsDB.
7. AAOIFI. (2021). Shariah Standards. Bahrain.
8. Islamic Financial Services Board. (2023). Islamic Financial Services Industry Stability Report. Malaysia.
9. Islom moliyasi arxitekturasini. Islom bank ishi va moliya instituti, Malayziya, 2016.
10. Baydaulet, Y.A. (2019). Islom moliyasi asoslari / tarj. B. Jo'rayev. Toshkent: O'zbekiston.
11. Cusmano, L. (2015). Kichik va o'rta korxonalar hamda tadbirkorlikni moliyalashtirishga yangi yondashuvlar: instrumentlar doirasini kengaytirish, 2022.
12. ICD-LSEG. (2025). Islamic Finance Development Report.
13. IMAN Invest kompaniyasi. (2025). Yillik hisobot.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti: www.cbu.uz
15. Islom moliyasi rasmiy sayti: www.islommoliya.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
